

## OTLARNING TUZILISHI VA YASALISHI

**Suyunova Shaxzoda Ilhom qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi suyunovashahzoda97@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu ishda o'zbek tilidagi otlarning tuzilishi va yasalishi masalalari tahlil qilinadi. Mazkur mavzu doirasida otlarning asosiy turlari – sodda, qo'shma, juft va qisqartma otlar – batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, otlarning yasalish usullari, ya'ni affiksatsiya, kompozitsiya va qisqartirish orqali hosil bo'lish jarayoni, ularning grammatik va leksik xususiyatlari ham yoritiladi. Ish otlarning leksik-semantik tiplari, shaxs va narsa otlari, shuningdek qo'shimchalar yordamida yasalgan yasama otlar haqida ilmiy ma'lumot beradi va tilshunoslikda ularning ahamiyatini tushuntiradi.*

**Kalit so'zlar:** *ot, otlar tuzilishi, yasama ot, sodda ot, qo'shma ot, juft ot, qisqartma ot, affiksatsiya, kompozitsiya, leksik-semantik tiplar, o'zbek tili.*

**Аннотация:** *В данной работе анализируются вопросы структуры и образования существительных в узбекском языке. В рамках данной темы подробно рассматриваются основные типы существительных – простые, составные, парные и сокращенные. Также освещаются методы образования существительных, то есть процесс образования посредством аффиксации, композиции и редукции, их грамматические и лексические особенности. Работа предоставляет научную информацию о лексико-семантических типах существительных, личных и объектных существительных, а также искусственных существительных, образованных с помощью суффиксов, и объясняет их значение в лингвистике.*

**Ключевые слова:** *существительное, структура существительных, искусственное существительное, простое существительное, составное существительное, парное существительное, сокращенное существительное, аффиксация, композиция, лексико-семантические типы, узбекский язык.*

**Abstract:** *This work analyzes the issues of the structure and formation of nouns in the Uzbek language. Within the framework of this topic, the main types of nouns - simple, compound, paired and abbreviated nouns - are considered in detail. Also, the methods of formation of nouns, that is, the process of formation through affixation, composition and reduction, their grammatical and lexical features are covered. The work provides scientific information about the lexical-semantic types of nouns, personal and object nouns, as well as artificial nouns formed using suffixes, and explains their significance in linguistics.*

**Key words:** *noun, structure of nouns, artificial noun, simple noun, compound noun, paired noun, abbreviated noun, affixation, composition, lexical-semantic types, Uzbek language.*

## KIRISH

Tilshunoslikda soʻz turkumlari muhim oʻrin tutadi. Ularning ichida ot soʻz turkumi predmet, hodisa, shaxs va tushunchalarning nomini bildirishi bilan ajralib turadi. Otlar nutqda juda keng qoʻllanadi va gap tuzilishida muhim vazifani bajaradi. Shuning uchun ularning tuzilishi, yasalish usullari va turlari tilshunoslikda alohida oʻrganiladi.

Otlar tuzilishiga koʻra bir necha turga boʻlinadi. Bu turlar soʻzlarning qanday hosil boʻlishi, nechta oʻzak yoki soʻzdan tashkil topishi hamda grammatik jihatdan qanday shakllanishiga qarab aniqlanadi. Oʻzbek tilida otlar asosan sodda otlar, qoʻshma otlar, juft otlar va qisqartma otlar kabi guruhlarga ajratiladi.

Otlarning tuzilishini oʻrganish tilning boyligi va soʻz yasash imkoniyatlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega. Chunki yangi soʻzlar koʻpincha mavjud oʻzaklarga qoʻshimchalar qoʻshish, soʻzlarni birlashtirish yoki qisqartirish orqali hosil qilinadi. Shu sababli otlarning tuzilishi va yasalish jarayonini oʻrganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Mazkur ishda otlarning tuzilishi, ularning asosiy turlari va yasalish usullari haqida batafsil maʼlumot beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Oʻzbek tilshunosligida otlarning tuzilishi va yasalishi masalasi koʻplab olimlar tomonidan ilmiy jihatdan oʻrganilgan. Bu borada oʻzbek tilining morfologiyasi, leksikologiyasi va soʻz yasalishi bilan bogʻliq tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, Abdugʻani Gʻulomov (1965) oʻzbek tili grammatikasi boʻyicha olib borgan ilmiy izlanishlarida otlarning tuzilishi, soʻz yasash jarayonlari va affikslar yordamida yangi soʻz hosil boʻlishi haqida batafsil maʼlumot bergan.

Shuningdek, Shavkat Rahmatullayev (1985) oʻzbek tilining leksikologiyasi va morfologiyasi masalalarini oʻrganib, soʻzlarning tuzilishi, ularning yasalish usullari hamda qoʻshma va juft soʻzlarning til tizimidagi oʻrnini ilmiy asosda tahlil qilgan. E. Begmatov (1987) esa oʻz tadqiqotlarida oʻzbek tilidagi soʻz yasash jarayonlari, affikslarning vazifasi va yangi otlarning hosil boʻlish mexanizmini keng yoritib bergan.

Bundan tashqari, A. Nurmonov (2001) oʻzbek tilining nazariy grammatikasi boʻyicha olib borgan tadqiqotlarida otlarning tuzilish turlari, ularning grammatik xususiyatlari hamda nutqdagi qoʻllanishiga alohida eʼtibor qaratgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari otlarning tuzilishi va yasalishini oʻrganishda muhim nazariy manba boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tilshunoslikda qoʻllaniladigan umumiy ilmiy metodlar tashkil etadi. Ish jarayonida tahlil, taqqoslash, tavsiflash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil metodi yordamida otlarning tuzilishi va yasalish xususiyatlari oʻrganildi. Taqqoslash metodi orqali otlarning sodda, qoʻshma, juft va qisqartma turlari oʻrtasidagi oʻxshash va farqli jihatlar aniqlab olindi. Tavsiflash metodi esa ularning grammatik va leksik xususiyatlarini izohlashda qoʻllanildi.

Muhokama va natijalar. Otlar tuzilish jihatidan toʻrt turga boʻlinadi: sodda otlar, qoʻshma otlar, juft otlar va qisqartma otlar. Bu tasnif otlarning qanday shaklda hosil boʻlishi va tarkibiy tuzilishiga qarab belgilanadi.[4]

Sodda ot

Faqat bitta o'zak morfemadan iborat bo'lgan ot sodda ot deb ataladi. Sodda otlar ikki turga ajraladi: tub otlar va yasama otlar. Tub otlar – tarkibida ot yasovchi affiks bo'lmagan, mustaqil lug'aviy ma'noga ega so'zlardir. Masalan: quyosh, dala, qush, kitob kabi so'zlar tub ot hisoblanadi. Bunday otlarga shakl yasovchi yoki so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar qo'shilishi mumkin: quyoshdan, qushchalar, daladan, kitobning kabi.

Yasama otlar esa mustaqil ma'noli o'zakka ot yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi orqali hosil bo'ladi. Bu turdagi otlar ichki va tashqi affikslar yordamida yasalishi mumkin. Masalan, zamon+dosh, mehnat+kash, osh+paz, til+shunos kabi so'zlar ichki yasovchi affikslar yordamida hosil bo'lgan. O'ra+m, tutat+qi, isit+ma kabi so'zlar esa tashqi yasovchi qo'shimchalar orqali yasalgan yasama otlarga kiradi.

#### Qo'shma ot

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, bitta predmet yoki tushunchani ifodalashi natijasida hosil bo'lgan otlar qo'shma otlar deyiladi. Qo'shma otlar turli so'z turkumlariga mansub birliklarning birikishi orqali yuzaga keladi. Masalan, ot+ot shaklida (otquloq), sifat+ot shaklida (ko'ksulton, xomtok), ot+sifat shaklida (gulbeor), son+ot shaklida (mingoyoq, uchquduq), ot+fe'l shaklida (o'rinbosar), fe'l+ot shaklida (yoriltosh), yoki fe'l+fe'l shaklida (ishlabchiqarish) tuzilishi mumkin.

Ba'zan qo'shma otlar ikki emas, balki undan ko'p so'zning birikishi orqali ham hosil bo'ladi. Masalan: gultojxo'roz yoki gulhamishabahor kabi so'zlar shunday qo'shma otlarga misol bo'ladi.

#### Juft ot

Bir xil grammatik shakldagi ikki otning teng bog'lanishi orqali hosil bo'lib, umumiy ma'noni ifodalovchi so'zlar juft otlar deb ataladi. Juft otlarning har ikki qismi mustaqil urg'uga ega bo'lsa-da, talaffuzda ular yagona leksik urg'u bilan aytiladi. Odatda qo'shimchalar juft otning ikkinchi qismiga qo'shiladi: ota-onadan, osh-nonning, aka-ukalar kabi.

Juft otlar tarkibiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zilarida har ikkala qism ham mustaqil ma'noli so'zlardan iborat bo'ladi. Masalan: ota-ona, qozon-tovoq. Bunday so'zlar bog'lovchisiz yoki -u, -yu yuklamalari yordamida bog'lanishi mumkin: tog'-u tosh, olma-yu o'rik.

Ba'zi juft otlarda so'zlarning biri zamonaviy tilimizda ishlatilsa, ikkinchisi tarixiy yoki kam qo'llanadigan bo'lishi mumkin: ko'cha-kuy, el-ulus. Ayrim juft otlar esa turli tillardan kirib kelgan so'zlarning birikishi orqali hosil bo'ladi: kuch-quvvat, o'y-xayol, tuz-namak, savdo-sotiq. Shuningdek, har ikkala qismi ham o'zlashma so'zlardan tashkil topgan juft otlar ham mavjud: hol-ahvol, hisob-kitob, sir-asror.

Juft otlarda so'zlar ma'no jihatdan turli munosabatda bo'lishi mumkin. Ular ma'nodosh bo'lishi (o'y-xayol, kuch-quvvat), zid ma'noni ifodalashi (er-xotin, o'g'il-qiz), yoki bir guruhga mansub tushunchalarni bildirishi (yuz-ko'z, idish-tovoq) mumkin.

Ba'zi juft otlarda esa faqat bir qismi mustaqil ma'noga ega bo'ladi: kiyim-kechak, temir-tersak, qand-qurs. Ayrim hollarda esa har ikki qismi ham mustaqil ma'noga ega bo'lmagan birliklardan tashkil topadi: g'ala-g'ovur, ikir-chikir, g'idi-bidi.

Bundan tashqari, boshqa soʻz turkumlariga mansub soʻzlar juftlashib ot maʼnosida ishlatilishi ham mumkin. Masalan, sifatlardan: issiq-sovuq, oq-qora; ravishlardan: kam-koʻp; feʼllardan: yurish-turish, keldi-ketdi, bordi-keldi; taqlid soʻzlardan: adi-badi, qiy-chuv kabi.

#### Takroriy otlar

Bir xil shakldagi soʻzning aynan takrorlanishi orqali hosil boʻlgan otlar takroriy otlar deb ataladi. Bunday otlar koʻplik, umumlashtirish yoki maʼnoni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Masalan: ombor-ombor gʻalla, xirmon-xirmon paxta kabi iboralar hosilning koʻpligini ifodalaydi.

Takroriy otlarning yana bir turi mavjud boʻlib, bunda soʻz oʻzining fonetik oʻxshash shakli bilan takrorlanadi. Bu usul gumon, umumlashtirish yoki jamlash maʼnolarini bildiradi. Masalan: ovqat-povqat, non-pon, ilon-milon, choy-poy kabi soʻzlar shunday tuzilishga ega.

#### Qisqartma otlar[5]

Murakkab soʻz birikmalarini turli usullar bilan qisqartirish orqali hosil qilingan otlar qisqartma otlar deb ataladi. Bunday soʻzlar nutqni ixcham va qulay qilishda muhim ahamiyatga ega. Masalan: BMT, OAK (Oliy Attestatsiya Komissiyasi), Oʻzteleradio, Oʻzdunrobita kabi qisqartmalar shular jumlasiga kiradi.

Baʼzi qisqartma soʻzlar esa boshqa tillardan aynan oʻz shaklida oʻzlashtirilgan holda ishlatiladi. Masalan: YUNESKO, NATO, Koskom kabi nomlar xalqaro tashkilot va muassasalarni bildiruvchi qisqartma otlardir.[6]

Har qanday tilning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati uning maqomi, qoʻllanish doirasi hamda rivojlanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Til qanchalik faol qoʻllansa va rivojlanib borsa, uning soʻz boyligi ham shunchalik kengayadi. Oʻzbek tilida ham soʻz turkumlarining yasaliş jarayoni tilning taraqqiy etishida muhim omil hisoblanadi. Xususan, ot soʻz turkumining shakllanishi va rivojlanishi tilning leksik va grammatik imkoniyatlarini namoyon etadi.

Ot soʻz turkumi kim?, nima?, qayer? kabi savollarga javob boʻlib, shaxs, narsa, joy, hodisa yoki jarayon nomini bildiruvchi leksik birlik hisoblanadi. Tilshunoslikda otning umumiy grammatik maʼnosi borliqdagi mavjudlikni predmet sifatida nomlash bilan izohlanadi. Bu yerda “predmet” tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik jihatdan talqin qilinadi. Mantiqiy nuqtayi nazardan predmet koʻzga koʻrinadigan yoki sezgi aʼzolariga taʼsir qiladigan narsa sifatida qaralsa, grammatikada u ancha keng maʼnoda qoʻllanadi va mavjud boʻlgan barcha tushunchalarni qamrab oladi.[7]

Ot leksemalari turkumini oʻrganishda ularning turli grammatik shakllar bilan oʻzgarishi muhim ahamiyatga ega. Ot soʻzlari son, egalik va kelishik kabi grammatik kategoriyalar bilan shakllanadi. Ushbu kategoriyalar orqali ot leksemalari turli morfemalar yordamida oʻzgaradi va yangi grammatik shakllar hosil qiladi. Ot leksemalarining shakllari maʼlum qoidalar asosida morfemalarning ketma-ket qoʻshilishi orqali yuzaga keladi.

Otlar maʼno jihatdan ham turli guruhlarga boʻlinadi. Eng umumiy tasnif kim va nima soʻroqlari asosida amalga oshiriladi. Kim soʻrogʻiga javob beradigan otlar kishi

otlari deb ataladi. Masalan, o'qituvchi, talaba kabi so'zlar shaxsni bildiradi. Nima so'rog'iga javob bo'ladigan otlar esa narsa otlari hisoblanadi. Masalan, imtihon, qush kabi so'zlar shular jumlasiga kiradi.[8]

Otlar mustaqil so'z turkumlari qatoriga kiradi va boshqa so'z turkumlaridan bir qator grammatik xususiyatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, otlar so'z yasash imkoniyatiga ega bo'lib, ulardan turli affiksalar yordamida yangi so'zlar hosil qilinadi. Masalan: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog'bon, oshpaz kabi so'zlar shu jarayon natijasidir. Ikkinchidan, otlar son kategoriyasiga ega bo'lib, birlik va ko'plik shakllarida qo'llanadi: bola – bolalar, daftar – daftarlar. Shuningdek, egalik qo'shimchalari orqali predmetning kimga tegishliligi ifodalanadi: otam, otang, otasi, otamiz, otangiz. Otlar kelishik qo'shimchalari orqali ham o'zgaradi: maktab, maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan. Bundan tashqari, otlar gapda turli sintaktik vazifalarni bajarib, gapning barcha bo'laklari sifatida kelishi mumkin.

Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar hosil bo'ladi. Bunday otlar bir necha usullar orqali shakllanadi. Ulardan biri affiksatsiya bo'lib, bu usul ot yasashda eng samarali hisoblanadi. Affiksalar yordamida shaxsni bildiruvchi otlar (bo'yoqchi, ishchi, maktabdosh), predmet yoki qurol nomlari (ochqich, kurak, qirindi), shuningdek o'rin-joy nomlari (bodonzor, qarorgoh, O'zbekiston) hosil qilinadi.[9]

Ot yasovchi qo'shimchalarning ko'pchiligi bir nechta ma'noda qo'llanishi mumkin. Masalan, -chi qo'shimchasi juda sermahsul bo'lib, ko'pincha kasb yoki faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsni bildiradi. Sportchi, dutorchi, kashtachi kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, u muayyan ish yoki faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsni ham bildiradi: maslahatchi, yordamchi, terimchi. Ba'zi hollarda esa muayyan harakat yoki hodisaga moyilligi kuchli bo'lgan shaxsni anglatadi: to'polonchi, buzg'unchi kabi.[10]

-shunos qo'shimchasi yordamida esa muayyan fan yoki sohani o'rganuvchi mutaxassis nomlari yasaladi. Masalan: tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunos. -kor qo'shimchasi esa ikki xil ma'noda qo'llanadi. Birinchi holatda u ma'lum mahsulotni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxsni bildiradi: paxtakor, sholikor. Ikkinchi holatda esa muayyan ish yoki faoliyat bilan bog'liq shaxsni ifodalaydi: gunohkor, xiyonatkor.

Otlar kompozitsiya usuli orqali ham yasaladi. Bu usulda ikki yoki undan ortiq so'z birikib yangi ot hosil qiladi. Natijada qo'shma va juft otlar paydo bo'ladi. Masalan: toshko'mir, tuyaqush, karnaygul kabi so'zlar qo'shma otlardir. Qo'shma otlar turli so'z turkumlari birikishi orqali hosil bo'lishi mumkin: ot+ot (atirgul, kinolenta), sifat+ot (kaltakesak), ot+fe'l (echkiemar), son+ot (beshbarmoq), son+fe'l (beshotar), fe'l+fe'l (ishlab chiqarish).[11]

Juft otlar esa ikki so'zning teng bog'lanishi orqali hosil bo'ladi. Ular tarkibiga ko'ra uch turga bo'linadi: har ikkala qismi mustaqil ishlatiladigan juft otlar, qismlaridan biri mustaqil qo'llanmaydigan juft otlar hamda har ikkala qismi ham mustaqil ishlatilmaydigan juft otlar.

O'zbek tilida yasama otlar leksik-semantik jihatdan ham bir necha guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar ot turkumining so'z yasalish tizimini tashkil qiladi. Masalan, shaxs

otlari insonni bildiruvchi so'zlar bo'lib, ular kasb, faoliyat yoki boshqa belgilar asosida nomlanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, otlar faqat ko'zga ko'rinadigan predmetlarni emas, balki mavhum tushunchalarni ham ifodalaydi. Masalan, es, qayg'u, zulm kabi so'zlar sezgi orqali idrok etilmaydigan, ammo mavjud bo'lgan tushunchalarni bildiradi. Shu sababli otlarning ma'nosi juda keng qamrovga ega.[12]

O'zbek tilida borliqdagi barcha predmet va tushunchalar otlar orqali ifodalanadi. Bu jarayonda turli mahsuldor va kam mahsuldor yasovchi qo'shimchalar muhim rol o'ynaydi. Ot yasovchi affikslar nafaqat yangi so'zlar yaratishda, balki boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni o'zlashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu orqali til boyiydi va uning leksik imkoniyatlari yanada kengayadi.

O'zbek tilida ot so'z turkumi til tizimining eng muhim va faol qatlamlaridan biri hisoblanadi. Otlar borliqdagi shaxs, narsa, hodisa, jarayon va tushunchalarni nomlash orqali nutqning asosiy mazmunini shakllantiradi. Shuning uchun ham otlarning tuzilishi, yasalishi va grammatik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyatga ega.[13]

Xulosa. Tadqiqot davomida otlarning tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va qisqartma turlarga bo'linishi aniqlandi. Har bir tur o'ziga xos tuzilish va yasalish xususiyatlariga ega. Sodda otlar bitta o'zakdan tashkil topib, tub va yasama shakllarda uchraydi. Qo'shma otlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikishi orqali hosil bo'lsa, juft otlar teng bog'langan ikki so'z asosida yuzaga keladi. Qisqartma otlar esa murakkab so'z birikmalarining ixcham shaklda ifodalanishi natijasida paydo bo'ladi.

Shuningdek, otlarning yasalishida affiksatsiya, kompozitsiya va qisqartirish usullari muhim rol o'ynashi aniqlandi. Ayniqsa, affiksatsiya usuli o'zbek tilida eng mahsuldor so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi. Turli qo'shimchalar yordamida yangi otlar hosil qilinib, tilning leksik boyligi kengayadi.

Umuman olganda, otlarning tuzilishi va yasalishini o'rganish o'zbek tilining grammatik tizimini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu esa nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tilni amaliy jihatdan to'g'ri va samarali qo'llash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldoshova Sh. O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2012, 144-bet.
2. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D. Ona tili. – Toshkent: Moliya, 2008.
3. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemika va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.
4. International Scientific Journal Interpretation and Researches, Volume 2, Issue 2 (24) | ISSN: 2181-4163, 82-be

5. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. O'TA, 1998-yil, 6-son, 22–26-betlar.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
8. Sayfullayeva R.R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
9. Sayfullayeva R., Mengliyev B., va boshqalar. Darslik. – Toshkent, 2010.
10. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
11. Yuldasheva Sh. O'zbek tili (amaliy grammatika). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
12. Shahobiddova Sh. O'zbek tili morfologiyasi: umumiylik va xususiylik dialektikasi talqinida. 2-juz, Andijon, 1994.